Teaching Reading to Young Learners: Essential Principles for Primary School Teachers	684
Toshtanova Maftuna Xamidjon qizi	
Tarmoq qurilmalari va tizimlarini boshqarish modulini o'qitish orqali o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash	687
Karimova Charos Abduhalim qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixologiyistik asoslari	691
Musayeva Nafisa Kudratovna, Muxammadova Saodat Muzaffar qizi	
"Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili	695
Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich	
Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar	699
Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	705
Zokirova Nargiza Akbarjonovna	
Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari	710
Eshnazarova Farida Jo'raqulovna	
Ta'lim islohotlari sharoitida genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari	714
Yaxyayeva Sojida Abduraximovna	
Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi	718
Berdiyeva Malika	
Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish	721
Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi	



Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	726
Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi	
Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari	731
Nazarova Mohigul Akmalovna	
Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar	736
Arabova Muxiba Bazarovna	
Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств	740
Хомидова Камола	
Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века ..	744
Бекназаров Собиржон	
Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni	748
Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li	
Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari	752
Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi	
O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi ..	759
Bobonazarov Orif Abrayqulovich	
Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..	764
Мусаева Елена Казимовна	
Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi	767
Sh. L. Rahmonova	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	770
Saidova Dilbar Erkinovna	
Ingliz tili o'qitishda integrativ (CLIL) texnologiyasining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos modellarini ishlab chiqish	773
Xakimova Xosiyat Jurayevna	
Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanish usullari	776
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam Abdug'apbor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda innovatsion o'yin metodlarining ahamiyati	785
Ikromov Ilxom Muxamadrasimovich	
Tabiat tasvirining adabiy janrlarga ko'ra o'ziga xosliklari	790
Fozilova Mohigul Farxodovna	
Методические подходы к развитию прагматической компетентности старшеклассников на основе чтения аутентичных материалов	794
Исаматдинова Машхура Икромжон кизи	
O'zbek tilida "zahar" konseptining leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari	799
Shokirov Sherati Ibrohimovich, Baxramov Xabibillo Sadikovich	
Integrativ modulli o'qitish tizimi samaradorligining miqdoriy va sifat tahlili	803
Nurmanova Nazira	
Sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati	807
Toshova Shaxnoza Tojnorovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga harakatga doir masalalarni klaster metodida o'rgatish	811
Badalov Dilmurod Abdixalilovich	
Ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanishning o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi didaktik asoslari	817
Ahmedova Adiba Ulug'bek qizi	
Philosophical Aspects and Analysis of the Regularities of the Formation of Geo-Economic Thinking	822
Ubaydullayev Islomjon Abdullayevich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlashning pedagogik asoslari	826
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	

Boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining (Media/Mass Communication) roli.....	831
Bo'ronova Dilrabo Ne'matullayevna	
Inkluziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish	835
Karimova Zulfiya Abduraxmanovna	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi.....	839
Murodova Sarvigul Raxim qizi	
Модернизация кадровой политики дошкольных учреждений через инновационные мониторинговые механизмы	843
Ким Нигора Каримовна	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini ergonomik yondashuv asosida rivojlantirish	847
Usmonova Xafiza	
Pedagogik improvizatsiya asosida talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	852
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish	857
Nurmatova Madina Odiljon qizi, Qo'shoqova Farangiz Azizbek qizi	
O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	861
Xaydarov Oxunjon Murodjonovich	
Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyati	866
B. Normamatova	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	869
Bahranova Hulkar Bahran qizi	
Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish.....	872
Berdiyev Bahodir Ravshanovich	
Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari	875
Botirova Zilola Nodirovna	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....	878
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish	882
Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	886
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
M. Ibragimova	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida	894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonova	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi	



O'ZBEK TILIDA "ZAHAR" KONSEPTINING LEKSIK- SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Shokirov Sherali Ibrohimovich
Andijon davlat universiteti professori

Baxramov Xabibillo Sadikovich
Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola o'zbek tilida "zahr" semasiga ega bo'lgan so'zlarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda mazkur leksemalarning axborot yetkazishdagi roli hamda ularning stilistik va pragma-semantik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada "zahr" konseptining mazmuni, uning turli adabiyotlarda talqin etilishi hamda milliy tilimizdagi qo'llanilishining semantik va pragmatik tahlili bo'yicha ilmiy mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: botulizm, pragmatik, presuppozitsiya, konvensional, intensiv, zahr, semantik tahlil, lingvistik munosabat, til.

Abstract: The article is devoted to the analysis of the lexical-semantic properties of words containing the seme "poison" in the Uzbek language. It highlights the role of these lexemes in information transmission as well as their stylistic and pragmatic features. In addition, the paper presents scholarly reflections on the content of the concept "poison", its interpretation in various academic sources, and a semantic-pragmatic analysis of its usage in the national language.

Key words: botulism, pragmatics, presupposition, conventional, intensive, poison, semantic analysis, linguistic attitude, language.

Аннотация: Статья посвящена анализу лексико-семантических свойств слов, имеющих сему "яд" в узбекском языке. В работе раскрывается роль данных лексем в процессе информационной коммуникации, а также их стилистические и прагматические особенности. Кроме того, в статье представлены научные рассуждения о содержании концепта "яд", его интерпретации в различных источниках и семантико-прагматическом анализе его функционирования в национальном языке.

Ключевые слова: ботулизм, прагматика, presupпозиция, конвенциональный, интенсив, яд, семантический анализ, языковое отношение, язык.

KIRISH

Pragmatika – semiotikaning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, tilshunoslikda nutq jarayonida paydo bo'ladigan lisoniy hosilalarning qo'llanishini o'rganuvchi sohadir. Boshqacha aytganda, pragmatika ifodalanayotgan fikr bilan so'zlovchi hamda inson faoliyatini anglatuvchi kontekst o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi yo'nalish hisoblanadi.

Semiotikaning asoschilaridan biri Ch. Morris semiotikani uch tarmoqqa ajratib ko'rsatadi:

- so'zning o'zi anglatayotgan narsa bilan bog'liq munosabati (semantika);
- so'zning boshqa so'zlarga bo'lgan munosabati (sintaktika);
- so'zning nutq ishtirokchilariga nisbatan bo'lgan munosabati (pragmatika).

Tadqiqot jarayonida biz o'zbek tilida "zahr" leksemasining etimologik kelib chiqishiga e'tibor qaratdik. Natijada "zahr" leksemasi hamda ushbu so'z bilan bog'liq juda ko'plab qiziqarli ma'lumotlar mavjudligi aniqlandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

E. Begmatov va A. Madvaliyevlar tahriri ostida chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da o'zbek tilida "zahr" so'zi ot so'z turkumiga mansub bo'lib, uning semantik ma'nolari lug'atdagi ta'rifga ko'ra fors tilidan olingan bo'lib, "og'u, qahr-g'azab" ma'nolarini anglatadi. Ushbu lug'atning II-jildida ot so'z turkumiga mansub "zahr" so'zining quyidagi asosiy ma'nolari keltirilgan:



1. Tirik mavjudotni og'ulab yemiruvchi yoki o'ldiruvchi modda, og'u: Masalan: Bu ayol – Razzoq so'fi degan odamning qizi, o'z eriga zahar berib o'ldirgan (Cho'lpon, "Kecha va kunduz") [2:63].
2. Ko'chma ma'noda og'u singari achchiq, kishi hayotini og'ulaydigan, azobga aylantiradigan narsa yoki holat: Masalan: Sayfulloga "Hovlingizda yegan-ichganim zahar edi, endi maktabda rangim chiqib qoldi", deb ta'na qilarmish (P. Tursun, "O'qituvchi").

Shuningdek, "zahar" leksemasining ushbu lug'atdagi ketma-ket ma'nolari ham o'rganib chiqildi. Izohli lug'atda "zahar" so'zining quyidagi ma'nolari qayd etilgan [1:142]:

1. Jahl, g'azab, achchig'i kelmoq: Masalan: Hovlida oshqovoq po'choq sudrab o'ynab yurgan bolani ko'rib, (Sharofatning) zahri biroz tarqaldi (A. Qahhor, "Qo'shchinor chiroqlari"); Qilg'ilikni O'ktam qiladi-yu, zaharni menga sochasizmi? (Oybek, "Shabadalar");
2. Qattiq zarb, achchiq og'riq: Masalan: Ot chidamas achchiq qamchi zahriga ("Go'ro'g'li");
3. Juda ham achchiq: Masalan: Zahar ovqat. Zahar tutun;
4. Zahri qotil (o'ldiradigan zahar, o'ldiradigan achchiq): Masalan: Zahri qotil dori;
5. Ko'chma ma'noda kishiga nayzadek botadigan, dilga ozor beradigan: Masalan: Rais ustagi g'azab bilan tikildi-yu, zahar to'la kinoya qildi! (Sh. Rashidov, "Bo'rondan kuchli");
6. Jahldor, serjahl, qahr-g'azabli (tili achchiq va jizzaki): Masalan: Bay-bay-bay, o'zi jinqarcha bo'lsayam, shunaqa zahar qizki, xuddi Zulayxo opangizga o'xshaydi (O'. Xoshimov, "Qalbinga quloq sol");
7. Yomon tomonga o'zgarmoq (ish, holat, sog'liq va shu kabilar haqida): Masalan: Ravshanning ishi zaharga to'la, birga ishlasang, ziyoni tegadi, xolos (S. Ahmad, "Hukm").

Berilgan ta'riflarga qo'shimcha tarzda yana bir lug'at ma'lumotlarini keltirish mumkin. Z. M. Ma'rufovning 1981–yilda chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ot so'z turkumiga mansub "zahar" konseptiga oid quyidagi qo'shimcha ma'nolar kuzatiladi [5:302–303]:

1. Ko'rib bilinadigan xususiyat: Masalan: Muzdek qovunni yesa, organizmni zaharlaydi, ichingizda iringga aylanadi (Sh. Rashidov, "Bo'rondan kuchli");
2. Botulizm (konserva va shunga o'xshash qadoqlangan meva-chevalarning muddati o'tgandan so'ng zaharga aylanishi): Masalan: Sarvinozning yozda qadoqlagan barcha tuzlamalari qishga kelguncha zaharga, ya'ni botulizmga aylandi (N. Safarov, "Yozda yopinchig'ini qo'yma").

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan leksikografik manbalar, izohli va frazeologik lug'atlar, badiiy adabiyot namunalari hamda informantlar ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma asosida yig'ildi. "Zahar" konseptiga oid leksemalar tanlab olinib, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari tavsifiy, qiyosiy va kontekstual tahlil usullari yordamida o'rganildi. Shuningdek, konseptual va komponent tahlil metodlari orqali mazkur leksemaning arxisemasi, yondosh hamda periferik ma'nolari aniqlandi. So'rovnoma natijalari statistik jihatdan umumlashtirilib, ularning til tizimidagi pragmatik vazifalari ilmiy asosda izohlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bundan tashqari, informantlar orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, ularning 80–90 % "zahar" so'zi nimani anglatadi, degan savolga inson organizmiga qattiq ta'sir etuvchi modda yoki narsalarning yaroqsizlantiruvchi xususiyatini bildiradi, deb javob bergan bo'lsa, undan so'ng boshqa ma'nolarini tilga olganlar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, "zahar" leksemasining arxisemasi sifatida "ziyon yetkazuvchi" ma'nosini tanlab oldik. Uning atrofidagi yondosh semalarni esa uning variantlari deb hisoblaymiz.

Variant ma'nolar "zahar" arxisemasi bilan yaqin va distant ma'noviy aloqada bo'ladi. Yaqin variantlar "zaharli" leksemasi va uning vazifalariga mos keluvchi ma'nolarni ifoda etadi.

Distant ma'noli variantlar zahar va uning vazifalari hamda xususiyatlariga xos bo'lmagan semalar majmua-sidan iborat bo'lib, bunga yoqimsiz, taxir, beo'xshov kabi ma'nolarni misol keltirish mumkin.

Demak, aytish mumkinki, semantik ma'nosi bilan bir qatorda aytilgan gap yoki fikr o'zining pragmatik ma'nosiga ham ega bo'lib, pragmatik vazifani ham bajaradi. Masalan, jahldor odamning yonida turgan kishiga aytgan "Men buni uddalayman" degan gapi ortida vaziyatga ko'ra "Har qanday menga qilingan achchiq yoki zaharxandaga chidab tura olaman" degan ma'no ham anglashiladi. Bu uning pragmatik ma'nosini amalga oshiradi.

Gapning semantik ma'nosi uning funksional-pragmatik ma'nosiga to'la mos kelmaydigan holatlar ham uchrab turadi. Masalan, "Garimdorini shirinidan terib kel!" gapi zahar singari achchiq qalampir olib kelish ma'nosini taqozo qiladi.



Bunday tipdagi gaplar lisoniy va mantiqiy asosda, nutq vaziyati taqozosi bilan bog'liq holda hosil bo'ladi. Masalan: Tohirning qo'li zahar – nimani qo'lga tutsa, o'sha narsa ishlamay qoladi. Bu gapda lingvistik presuppozitsiya o'rin oladi, ya'ni ikki ibora orasida sinonimik qator yuzaga keladi.

“Do'stingni zahar yutganmi?” – Hozir gapirib beradi, shoshilmang. Ushbu gapda mantiqiy presuppozitsiya kuzatiladi, ya'ni kishining voqea haqida gapiradimi yoki yo'qligi aniqlanadi.

“Uni zaharlamochimisiz?” gapida esa kelajagini yo'qqa chiqarish uchun yo'ldan urmang degan ma'no anglashilib, situativ presuppozitsiya hodisasi kuzatiladi.

Biror narsaning yetishmayotgani yoki kamligi haqidagi eslatma o'sha yetishmayotgan narsani to'ldirib qo'yish zarurati haqidagi istakni ham ifodalashi mumkin. Masalan: “Bir chimdim tuz tashlang” gapida ovqatning tuzini to'g'rilab qo'ying degan pragmatik ma'no ifodalanadi.


Ushbu vaziyatda semantik jihatdan go'yo ortiqcha tuyulgan fikrlar yordamchi vositalar orqali ifodalangan pragmatik ma'noli gaplar sifatida baholanadi.

Masalan, “Savodingni zaharlashibdi” degan gap pragmatik jihatdan biror narsani o'rgatishda xatolik ketganini anglatasa, semantik jihatdan esa hurmatsizlik ma'nosini ifodalashi mumkin. Bunday gaplar nutqning turli janrlarida keng miqyosda qo'llanilib, turli-tuman stilistik ifoda vositalari orqali anglashiladi.

Tilda bunday gaplarning ko'rsatkichlari, ya'ni indikatorlari shakllangan. So'roq yuklamasi “–mi”ning qo'llanishi ana shu ko'rsatkich vazifasini bajarsa, “ie” so'zi so'zlovchining hayronligini bildiradi. Bunday gaplar ko'chma ma'noda qo'llanilib, o'ziga xos metafora vazifasini ham bajaradi. Ular, odatda, konvensional xarakterdagi gaplar sifatida baholanadi. Masalan: “Kechirasiz, mana bularni zaharladizmi?” so'roq gapida ziyon keltiruvchi hashoratlardan himoyalab qo'ying mazmunidagi muloyim iltimos ifodalangan bo'lib, bu muloyimlik ottenkasini fe'l shakli orqali ifodalangan modallik ma'nosi ta'minlaydi.

“Zahar” semasiga ega bo'lgan va ot (substantiv), sifat, fe'l hamda frazeologik birikmalar orqali ifodalangan qo'shimcha, ya'ni yadroviy ma'noga nisbatan ancha susaygan va undan uzoqlashgan periferik ma'nolar (zaharsiz, sof, toza kabi) mazkur leksemaning pragmatik xususiyatlarini namoyon qiladi. Bu holatni maxsus chizma orqali tasvirlash mumkin.

“Zahar” semasiga ega bo'lgan leksemaning pragmatik xarakteri tirik jonzor iste'mol qilishiga qarab uning tabiati, hayot tarzi va umumiy psixik holatini tushunishda ham namoyon bo'ladi. Bunda iliqlik, hurmat, g'azab, yovuzlik, baxt, saodat, umid, ishonch, bezovtalik, qo'rquv, xafalik, qiziquvchanlik, samimiylik va olijanoblik kabi ko'plab tuyg'ular ifodalangan bo'lishi mumkin.



“Zahar” semasiga ega bo'lgan leksemaning pragmatik xarakteri tirik jonzor iste'mol qilishiga qarab uning tabiati, hayot tarzi va umumiy psixik holatini tushunishda ham namoyon bo'ladi. Bunda iliqlik, hurmat, g'azab, yovuzlik, baxt, saodat, umid, ishonch, bezovtalik, qo'rquv, xafalik, qiziquvchanlik, samimiylik va olijanoblik kabi ko'plab tuyg'ular ifodalangan bo'lishi mumkin.

“Zahar” leksemasi nutqda turli stilistik vosita sifatida ham qo'llanadi. Jumladan, mazkur leksema asosida metaforik va metonimik modellar hosil qilinib, nutqda keng tatbiq etiladi. Masalan, “Zahar – ziyon (jahol, g'azab, achchiq, zarb, serjahl, jizzaki)” metaforik modeli inson tasavvurini chuqur va kenglik o'lchamlariga ega bo'lgan konseptual maydon sifatida yuzaga chiqaradi. Masalan: Baxtga qarshi, tergovchi yosh bo'lsa ham, sochlari to'kilib, tepakal bo'lib qolgan, tirnoqlarigacha jahldor, zahar bir odam ekan.

Bundan tashqari, “zaharxanda” so'zi “kulgi” va “kinoya” ma'nolarini ifodalovchi metaforik hamda metonimik modellar doirasida ham keng qo'llaniladi. Achchiq kulgi insonning ijobiy hislarini anglatishi mumkin bo'lsa, achchiq kinoya yovuzlik singari salbiy tuyg'ularni ifodalaydi. Masalan: Xotin xandon tashlab kuldi. Uning bu kulgisi alam bilan zaharxanda aralashga o'xshardi (S. Ahmad, “Asarlar”).



Metaforik modellar bilan bir qatorda “ta’m-maza – inson (odam)” tipidagi metonimik modellar ham qo’llaniladi. Masalan: “Shahano’h menga emas, mening yurtimga, boyligimga oshiq bo’lgandir”, – dedi To’maris zaharxanda qilib (M. Osim, “Karvon yo’llarida”).

O’zbek tilida “zahar” konseptini o’rganish jarayonida uning quyidagi guruhlariga bo’linishini kuzatdik. Ular quyidagilardan iborat:

1. **Zaharga xos fazilatlar:** jahldor, serjahl, g’azabli, tili achchiq, jizzaki. Masalan: Uning nazarida Shukur Karimovich jahldor, zaharroq odam ko’rinadi (Mirmuxsin, “Umid”);
2. **Zaharga berilgan sifatlar:** zaharli, zaharsiz, zaharolud, zaharlovchi, zaharxanda, zaharlangan, achchiq zahar, shirin zahar, hidli zahar, hidsiz zahar. Masalan: Mashina terimiga ajratilgan paxta maydonlari begona o’tlardan tozalanmagan, zaharli kimikatlari tashib olinmagan (gazetadan);
3. **Zahari aniqlangan murakkab turlar:** og’u, tamaki, zahar tosh, zahar o’simlik, zaharli gaz. Masalan: Do’sting uchun og’u yut, shirin joning tik (Yo. Mirzo, “O’g’il mehri”);
4. **Intensivlikni ifodalovchi zahar:** zahil rang, ilon po’sti, chalajon. Masalan: Katya ichkari yurib, rangi zahil, sap-sariq ofitserni ko’rdi (V. G’ofurov, “Vafodor”);
5. **Kimyo fanining davriy jadvalidagi zaharli moddalar:** uran, toriy, poloniy, radiy, simob, oltingugurt. Masalan: Davlatning uran chiqadigan joylaridan aholini evakuatsiya qilish kerak (gazetadan).

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, o’zbek tilida “zahar” semantikasi atrofiga birlashgan lisoniy birliklar 6 ta modelni tashkil etishini aniqladik. Ular quyidagi qurilmalardan iborat ^[6,78]:

1. N yoki Adj (sodda tuzilishga ega bir o’zakli so’zlar): zahar;
2. N + Adj = N (bir ot va bir sifat o’zakli qo’shma so’zlar): zahar-zaqqum;
3. N + N = N (ikki o’zakli qo’shma so’zlar): zaharxanda;
4. N + suffiks = Adj (bir ot va bir suffiksli yasama so’z): zaharli;
5. N + suffiks = V (bir ot va bir suffiksli yasama so’z): zaharlanmoq;
6. N + ga (–da, –dan, –i, –ni, –ning) + V = WC (kelishik va egalik suffikslari orqali hosil bo’lgan so’z birikmasi): zaharni totmoq.

“Zahar” konseptining kognitiv strukturasiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, mazkur tadqiqot obyekti ko’plab kichik mikrokonseptlardan tashkil topgan bo’lib, ular inson hayotida zaharlanish, ziyon yetish va sustlashish kabi holatlarni ifodalaydi ^[7:80].

“Zahar” konsepti tarkibiga kiruvchi har bir mikrokonsept o’zbek tilida keng qamrovli bo’lib, u leksik va frazeologik birliklar, maqol va matallar, aforizmlar hamda so’z birikmalarida faol namoyon bo’ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, tadqiqotga tortilgan konsept maydonining strukturoviy tavsifi bizga “zahar” konseptini namoyish qilishda qo’llanadigan ko’plab lisoniy vositalarni ma’lum sistema, ya’ni tartibga solish imkonini berdi.

Mazkur yondashuvni qo’llash va konseptual tahlilni amalga oshirish tadqiqot obyekti yanada kengaytirish, uni kelajakda qayta ishlash imkoniyatlarini belgilashga xizmat qiladi. Bizning nazarimizda, bu holat hozirgi zamon lingvistikasida metodikani takomillashtirish, semantik va kognitiv yo’nalishlar asosida o’zaro muvofiqlashtirish hamda integratsiyalash imkonini beradi.

Yuqorida zikr qilingan mulohazalarga tayangan holda ta’kidlash mumkinki, “zahar” insonlarning qabul qilish va idrok jarayonlarini ifodalovchi muhim persepsiyalardan biri sifatida lisoniy tadqiqot uchun muhim obyekt bo’lib xizmat qiladi. “Zahar” semasiga ega bo’lgan leksemalar turli so’z turkumlariga mansub birliklar bilan birlashib, unga yondosh bo’lgan konnotativ ma’nolarni ham ifodalaydi va o’zining pragmatik xususiyatlarini namoyon qiladi. Ushbu leksema nutqda qo’llanganda uning pragmatik xarakteri, ya’ni konnotativ ma’nosi doimo unga hamroh bo’lib namoyon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdurahmonov R. Filosofiyadan qisqacha lug’at. – Toshkent: O’zbekiston nashriyoti, 1973. – 300 b.
2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 25–46.
3. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent, 2013. – 340 b.
4. Болдырев Н. Н. Когнитивная семантика / Н. Н. Болдырев. – Тамбов: Изд-во Тамб. ун-та, 2000. – 180 с.
5. Ma’rufov Z. M. O’zbek tilining izohli lug’ati. – Toshkent, 1981. – 500 b.
6. Rahmatullaev Sh. O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati. – Toshkent: Universitet, 1978. – 500 b.
7. Hojiev A. O’zbek tili sinonimlarining lug’ati. – Toshkent: O’qituvchi, 1974. – 200 b.
8. Shokirov Sh. Turli tizimli tillarda “ko’z” leksik-semantik maydoni va uni tashkil etuvchi til birliklari tipologiyasi: filol. fan. dokt. avtoreferati. – Toshkent, 2020.
9. Моррис Ч. У. Основания теории знаков [Текст] / Ч. У. Моррис // Семиотика: Антология. – Изд. 2-е, испр. и доп. – Москва: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2001. – С. 45–97.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.